

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2024-yilning  
I yarim yilligida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan  
MA'LUMOT**

**I. Ta'lim sifatini ta'minlash va o'quv jarayonini tashkil qilish yo'nalishida.**

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoridagi **bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 40 foizga (306 tadan 183 taga), magistratura mutaxassisliklari 15 foizga (625 tadan 528 taga)** maqbullashtirildi hamda yangilangan Klassifikator tasdiqlandi.

**TOP-300** talikka kirgan oliygohlar dasturlari asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun **183 ta malaka talablari** ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

**“O‘zbekistonning eng yangi tarixi”, “Dinshunoslik” va “Falsafa”** fanlarining o'quv dasturlariga **odob-ahloq, xulq-atvor, dunyoviy qadriyatlar, vatanparvarlik, taraqqiyparvarlik** kabi ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan modullar kiritildi.

Respublikamizning **2 ta** oliygohi Buyuk Britaniyaning nufuzli **“QS”** xalqaro reyting agentligining **“QS World University Rankings - 2025” TOP-1000** oliygohlar ro'yxatidan o'rin egalladi.

**Ma'lumot uchun:** “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari” milliy tadqiqot universiteti - **547-o'rin**, O'zbekiston Milliy universiteti - **781-790-o'rinda** qayd etildi.

Shuningdek, QS **“Fan sohalari reytingi”**da **2 ta** oliygoh **4 ta** fan sohalari bo'yicha **“TOP-500”**, **“QS Osiyo universitetlari reytingi 2024”** ro'yxatida **14 ta** oliygoh **“TOP-1 000”**, **“QS Sustainability Rankings – 2024”** reytingida **3 ta** oliygoh **“TOP-1 000”**, **“THE”** xalqaro reyting tashkilotiining **“Impact ranking - 2024”** TOP–1000 reytingida **7 ta** oliygoh **“TOP-1 000”** ro'yxatidan joy oldi.

**6 ta** oliygohning **38 ta** ta'lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi.

**2 323 nafar** professor-o'qituvchilar xorijda malaka oshirdi, **1970 nafar** xorijiy professor-o'qituvchilar o'quv jarayonlariga jalb etildi.

**179 ta** professional ta'lim muassasalariga uslubiy yordam ko'rsatildi. YUNESKO loyihasi doirasida **4 ta** ta'lim muassasasi jihozlandi va qayta ta'mirlandi.

Professional ta'lim klassifikatoridagi kasb va mutaxassisliklar amaldagi **689 tadan 218 taga (31 foiz)**ga maqbullashtirildi. Shu bilan birga, **Pearson (BTEC)** malakasidan **12 ta** yangi kvalifikatsiya kiritildi.

Akademik litsey va professional ta'lim muassasalarining **5 047 nafar** o'qituvchilarining malaka toifalari oshirildi.

Texnikumlarda kredit-modul tizimiga asoslangan **90 ta** mutaxassisliklar ta'lim dasturlari bakalavriat ta'lim dasturlari bilan uyg'unlashgan holda ishlab chiqildi.

Yil davomida dual ta'limda o'qitish maqsadida ish beruvchilar takliflari asosida **77 ta** kollej va texnikumda **3 691 nafar** o'quvchilar o'qishga qabul qilindi.

**II. Yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishida.**

“Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi bo‘lgan **156 nafar** yozuvchi va shoirlar **52 ta** guruhga taqsimlangan holda **208 ta** oliygoth hamda ular tomonidan otaliqqa olingan **umumta’lim maktablariga** birlashtirib chiqildi. Rejaga muvofiq loyiha doirasida taniqli ijodkorlar bilan **184 ta** oliygoth, **360 ta** maktab va **497 ta** mahallada jami **1 136 ta** tadbir tashkil etildi.

*Ma’lumot uchun: Mazkur tadbirlarga jami **159,4 ming nafar** talaba, **72,8 ming nafar** maktab o’quvchilari va **16,4 ming nafar** mahalla fuqarolari qamrab olindi.*

“Moziyga sayohat” dasturi asosida **102 312 nafar** talabalarning teatr, muzey, tarixiy obidalarga tashriflari tashkil etildi.

“Adabiy-ma’rifiy haftaliklar” loyihasi doirasida Toshkent shahridagi **80 ta** oliygoth tomonidan Adiblar xiyobonida **246 ta**, hududlardagi **14 ta** oliygoth tomonidan o’ziga birlashtirilgan istirohat bog’lari va xiyobonlarda **22 ta** tadbir tashkil etildi.

*Ma’lumot uchun: Mazkur tadbirlarga jami **41 ming** nafardan ziyod talaba, **5,5 ming** nafar profoyessional ta’lim muassasalarining o’quvchilari va **700 nafar** o’qituvchilar qamrab olindi.*

“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari”, “Tinchlik – eng oliy ne’mat”, “Jaholatga qarshi ma’rifat” kabi mavzularda **51 nomdagi** jami **4 506 ta** ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda tanlovlar yuqori saviyada tashkil etildi.

### III. Ilm-fan va innovatsiyalar yo’nalishida.

“Scopus” va “Web of Science” bazalar jurnallarida maqolalar soni **3 574 taga** yetkazilib **5,8 marttaga** oshdi, “Xirsh” indeksi (h-indeks) **5** va **undan yuqori** bo‘lgan professor-o’qituvchilar soni **417 nafarga** yetkazildi.

*Ma’lumot uchun: Respublika oliygothlarida professor-o’qituvchilar tomonidan “Scopus” xalqaro ilmiy-texnik bazasidagi jurnallarda chop etilgan ilmiy maqolalar soni **2017-yilda 612 tani** tashkil qilgan bo’lsa, **2024 yilda 3 574 taga** ortishiga erishildi. **2017 yilda** “Xirsh” indeksi (h-indeks) bo‘lgan professor-o’qituvchilar **99 nafar** bo’lsa, **2024 yilda 417 nafarga** yetkazildi.*

Oliygothlarda ilmiy darajali pedagoglar ulushi **32,7 foizdan 44 foizga** o’sdi.

***1 927 nafar** tadqiqotchi ilmiy darajaga ega bo’ldi. Shundan, **1627 nafari** falsafa doktori (PhD), **256 nafari** fan doktori (DSc). Shu bilan birga, **1 650 nafar** talabgor ilmiy unvon oldi. Shundan, **377 nafari** professor, **1 180 nafari** dotsent va **93 nafari** katta ilmiy xodim.*

“Olima ayollar” tanlovlari doirasida **17 ta fan** yo’nalishlari bo’yicha **68 ta** loyiha moliyalashtirildi.

Surxondaryo viloyatida **yoshlar texnoparki** faoliyati yo’lga qo’yildi.

Davlat ilmiy dasturlar doirasida **70 ta** tashkilotda **113 ta** loyiha **158,5 mlrd. so’m** miqdorida moliyalashtirildi.

Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlaridagi izlanuvchilar soni **10 634 taga** yetkazildi.

Tijoratlashtirish loyihalari natijasida **66,73 mlrd. so’m** qiymatidagi **188 ta** mahsulot ishlab chiqarildi (xizmat ko’rsatildi).

Innovatsion faoliyat infratuzilma tarmog’ida qo’shimcha **3 ta** subyekt tashkil etilib, umumiy soni **50 taga** yetkazildi.

2024-yilning o'tgan davri mobaynida innovatsion tumanlarda mahalliy byudjet va tashabbuskorlar mablag'lari hisobidan umumiy qiymati **208,7 mlrd. so'm** bo'lgan **68 ta** innovatsion loyiha moliyalashtirildi.

*Ma'lumot uchun: innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetdan **9,5 mlrd. so'm**, tashabbuskorlar mablag'lari hisobidan **199,2 mlrd. so'm** moliyalashtirilgan.*

**18,1 mln. AQSH dollari** miqdorida xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirildi, shuningdek, **12,4 mln. AQSH dollari** miqdorida mablag'lar tashqi beg'araz ko'mak loyihalari doirasida o'zlashtirildi.

**59 ta** muassasaning **138 nafar** yosh olimi **128 ta** xorijiy nufuzli ilmiy muassasalariga qisqa muddatli ilmiy stajirovkaga yuborildi.

**5 ta** ilmiy tashkilot **12 turdagi** umumiy qiymati **20,85 mlrd so'm** zamonaviy ilmiy laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi.

#### **IV. Xalqaro hamkorlik yo'nalishida.**

**9 ta xalqaro darajadagi tadbir** o'tkazilib, ushbu xalqaro tadbirlarda jami **50 ga** yaqin rektor va prorektorlar darajasida delegatsiyalar ishtirok etdi, oliygohlar o'rtasida jami **160 dan** ziyod yangi **shartnoma va memorandumlar imzolandi.**

*Ma'lumot uchun: **5 ta** davlat vakillari ishtirokida ta'lim forumlari, davra suhbatlari oliygohlarining yirik delegatsiyalari bilan uchrashuvlar.*

Hisobot davrida **5 ta xalqaro darajadagi hujjat** imzolandi.

*Ma'lumot uchun: (Belarus Ta'lim vazirligi bilan hamkorlik dasturi, Buyuk Britaniyaning "QAA" agentligi bilan memorandum, SHHT hamkorlik rejasi).*

#### **V. Raqamlashtirish yo'nalishida.**

"EMIS" axborot tizimida akademik litseylar bitiruvchilarining diplomlariga individual **QR-kod** qo'yish imkoniyati yaratildi.

*Ma'lumot uchun: Joriy yil 9-iyul holatiga platforma orqali jami **14 000 nafardan ortiq** bitiruvchilarga **QR-kodli diplom** hamda **ilovalar** shakllantirildi.*

Nodavlat hamda xorijiy oliygohlar uchun **EDUBilling** (Talabalarga shartnoma asosida ko'rsatilgan xizmatlar hisobni yuritish tizimi)da **elektron shartnomalar shakllantirish** imkoniyati yaratildi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining "Ta'lim krediti" axborot tizimiga integratsiya qilish orqali **talabalarga ta'lim krediti uchun onlayn ariza yuborish** imkoniyati yaratildi.

*Ma'lumot uchun: Hozirgi kunda ushbu platforma **96 ta** nodavlat hamda xorijiy oliygohlarda joriy etildi, shuningdek, mazkur platformaning **mobil ilovasi** ham ishlab chiqildi. Hozirga qadar mobil ilovani ko'chirib olishlar soni **15 000 dan** ortiqni tashkil etadi.*

**HEMIS** axborot tizimining "Oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish" **mobil ilovasi** takomillashtirildi.

*Ma'lumot uchun: Hozirgi kunda mobil ilovadan **600 000 dan** ortiq talabalar foydalanmoqda.*

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari **pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish** va ularga **malaka toifa berishga** mo'ljallangan **pedagog.edu.uz** platformasi ishga tushurildi.

#### **VI. Vazirlik rahbariyatining hududlarga tashriflari doirasida.**

**6 oy davomida** hududlarga **56 marotaba** tashrif buyurilib, **134 ta tashrif** obyektlari o'rganildi. Xususan:

**Andijon va Xorazm viloyatidagi "UzAvtoMotors" AJ**ning ishlab chiqarish zavodlari, hududdagi oliy va professional ta'lim muassasalari hamda **Innoparkda TTZ** va **GM Power Train** bilan hamkorlikda **muhandislar maktabi** faoliyatini yo'lga qo'yishga kelishildi.

Jizzax viloyati **Yoshlar texnoparkida "BYD Uzbekistan"**, **"Basalt Uzbekistan"** hamda **"ADM JIZZAKH"** korxonalari bilan **ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini** ta'minlash maqsadida ushbu korxonalarda **amaliyot xonalari** tashkil etildi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida **400 o'ringa** mo'ljallangan talabalar turar joyi binosi foydalanishga topshirildi.

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida **"Mashinasozlik texnoparki"** hamda Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filialida **"Yoshlar sanoat texnoparki"** va **"Energetika texnoparki"** faoliyati yo'lga qo'yildi.

Samarqand shahrida **TOP-500** talik reytingdagi oliygohlar ishtirokida **Global ta'lim forumi** yalpi yig'ilishi o'tkazildi.

#### **VII. Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar.**

Sohaga oid **17 ta** normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

***Ma'lumot uchun:** 1 ta O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2 ta Farmoni va 2 ta qarori, 8 ta Vazirlar Mahkamasining qarori hamda 4 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat.*

Jami **35 ta** normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ishlab chiqildi.

***Ma'lumot uchun:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3 ta Farmon va 4 ta qarori loyihalari, 27 ta Vazirlar Mahkamasining qarori loyihalari hamda 1 ta idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasi tayyorlandi.*